Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari	1213
Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan	1227
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rni.....	1231
Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	



Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан	1250
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budjet daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
Ikramov Ravshan Amanbayevich	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish	1261
Azadova Bonuposhsha Alisher qizi	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1266
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	1272
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.....	1277
Qorriyeva Shahnoza Safarboyevna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	1281
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	
Xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati	1284
Mirzayev Qulmamat Janzakovich, Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich	
Yog'-moy korxonalarining xor ashyo ta'minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari	1289
Jo'rayeva Nodiraxon Qombonovna	
O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari.....	1294
Berkinov Bazarbay Berkinovich	
O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollarini ta'minlash omillari.....	1300
X. I. Boyev	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishda jahon tajribasi.....	1305
Saipova Dilnoza Shuxratovna	
Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarining iyerarxiyasi.....	1310
Muhammadiyev Sardorbek Shokir o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy qararlarni qabul qilishning muhimligi.....	1315
Allayarov Shamsiddin Amanullaevich, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li	
Mehmonxonalarda boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish.....	1320
Qalandarova Gulnoza, Botirova Zumrad	
O'zbekistonda maktab va maktabgacha talim tizimini moliyashtirishni takomillashtirish.....	1324
Boltaboyev Murodbek Aybekovich	
Mehnat resurslarini samarali boshqarishda jahon tajribasi.....	1329
Xonnazarova Dilobar Qutbiddin qizi, Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash.....	1333
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
O'zbekiston Respublikasida "Iqtisodiy erkinlik indeksi"ning davlat aralashuvi darajasi yo'nalishida yuqori natija qayd eta olish imkoniyatlari va buning oqibatlari	1337
Qoraboyev Bobur Umarovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Ravshanov Shaxriyor Shuhratovich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li	
Improving the Participation of Joint-Stock Companies in the Capital Market.....	1343
Muminov Shohjahon Suyun ugli	
Mamlakatimizda atrof-muhitni himoyalashga ixtisoslashgan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish shakllari.....	1347
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
Mahalliy farmatsevtika mahsulotlari bozori va iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish xususiyatlari.....	1353
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
Soliq va buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy vositalar hisobining dolzarb masalalari	1359
Arifxanova Xabiba Shuxratovna	
Institutsional islohotlar sharoitida mamlakatni moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	1365
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Ermo'minov Iskandar Ziyodillayevich	



MAMLAKATIMIZDA ATROF- MUHITNI HIMOYALASHGA IXTISOSLASHGAN IJTIMOY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYAVIY QO'LLAB- QUVVATLASH HAMDA RAG'BATLANTIRISH SHAKLLARI



**Narzullayev Elmurod
Shuxrat o'g'li**

University of Business and
Science o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorij tajribalari, bu sohada izlanishlar olib borgan olimlar, mamlakatimizda ijtimoiy tadbirkorlikni paydo bo'lishi, bugungi kunda rivojlanish holati, ijtimoiy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, bu turdagi tadbirkorlik faoliyatini olib borishning talablari va tartibi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy korxonalar reyestri, preferensiyalar, ekologik tadbirkorlik, ijtimoiy loyiha, ijtimoiy tovar, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash.

Abstract: This article presents advanced foreign experience in the development of the field of social entrepreneurship, scientists who have conducted research in this area, the emergence of social entrepreneurship in our country, the state of its development today, measures taken to support social entrepreneurship activities, discusses the requirements and procedure for conducting this type entrepreneurial activity.

Key words: social entrepreneurship, register of social enterprises, preferences, environmental entrepreneurship, social project, social goods, renewable energy sources, waste recycling.

Аннотация: В данной статье представлен передовой зарубежный опыт развития сферы социального предпринимательства, ученые, проводившие исследования в этой области, возникновение социального предпринимательства в нашей стране, состояние его развития на сегодняшний день, меры, принимаемые по поддержке мероприятий социального предпринимательства, обсуждаются требования и порядок ведения данного вида предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: социальное предпринимательство, реестр социальных предприятий, предпочтения, экологическое предпринимательство, социальный проект, социальные товары, возобновляемые источники энергии, переработка отходов.

KIRISH

Mamlakatimizda ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularning turmush sharoitini yaxshilash borasida bir qator amaliy chora-tadbirlar ko'rib, imtiyoz va preferensiyalar berib kelinmoqda. Yuqoridagi kabi ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun turli mamlakatlar turli xil choralarni qo'llab ko'rmoqda. Ular orasida eng samarali choralardan biri ijtimoiy tadbirkorlik faoliyat turini amaliyotga tatbiq qilish hisoblanadi. Dunyoning eng rivojlangan AQSh, Yaponiya, Kanada, Janubiy Koreya, Italiya, Germaniya, Shvetsiya, Shvetsariya kabi mamlakatlarida ijtimoiy tadbirkorlik sohasini maqsadli va tizimli rivojlantirish, boshqaruv usullarini bosqichma-bosqich takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy tadbirkorlik, uning o'ziga xos xususiyatlari va umumiy tavsifi borasida xorijlik yirik iqtisodchi olimlar X.Bouen, D.Bornshteyn, J.Elkington, P.Xartigan, B.Dreyton, G.Diz, Charlz Leadbeater zamonaviy olimlardan, J.Boshi, J.Kikal va T. Lyons ^[6, 7, 8] kabilar ilmiy izlanishlar olib borganlar.



Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlari olimlaridan A.A.Antonova, A.A.Barisheva, B.M. Teplov, M.A.Makarenko, V.V.Kashpur, L.V.Xoxlova, D.M.Shakirova, V.I.Makarevich^[9, 10, 11] va boshqalar ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqarish bo'yicha nazariy hamda amaliy muammolari ustida o'z tadqiqotlarini olib borganlar.

Mahalliy olimlarimizdan, A.Vahobov, S.G'ulomov, N.Yuldoshev, N.Maxmudov, A.Soliyev, M.Butaboyev, I.Nosirov, Sh.Zaynutdinov, A.Xoshimov, N.Rasulov, N.Norbayev^[12, 13] va boshqalar mamlakatimizga ijtimoiy tadbirkorlik sohasining kirib kelishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlantirishni boshqarish yo'llari, avfzallik va kamchiliklari bo'yicha izlanishlar olib borishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jahon tajribasida ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsion boshqarish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy tadbirkorlar faoliyatini samarali boshqarish hamda rivojlantirish mexanizmlarini tizimli ravishda takomillashtirishga olib keladigan boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va tashkiliy identifikatsiyani qurish, chiqindilarni samarali boshqarishga oid ilmiy tadqiqotlar doimiy ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyat olib boradigan innovatsion yo'nalishlarini va o'ziga xos ilmiy-uslubiy asoslarini o'rganish, ular faoliyatining samaradorligini baholash, modellarini hamda boshqarish va rivojlanishtirish strategiyalarini ishlab chiqish asosiy ilmiy tendensiyalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, tasniflash, mantiqiy fikrlash, dinamik qatorlar kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, rivojlantirishni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, faoliyat samaradorligini baholash hamda boshqarish strategiyasi ishlab chiqishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy tadbirkorlarni moddiy qo'llab-quvvatlash uchun O'zbekiston nogironlarning jamoat birlashmalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari uchun kreditlashning soddalashtirilgan tartibdagi yangi sxemasini ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Unga ko'ra, ijtimoiy korxonalar uchun imtiyozli kreditlar quyidagi shartlarda beriladi,


- a) kredit summasi - eng kam ish haqi miqdorining 1 000 barobarigacha;
- b) asosiy qarzni to'lashga olti oylik imtiyozli davrni hisobga olgan holda uch yilgacha muddatga;
- c) ijtimoiy tadbirkorlik loyihalari doirasida ajratiladigan imtiyozli kreditlarning yillik foiz stavkasi yaratiladigan jami ish o'rinlaridan nogironlar uchun ish o'rinlari sonidan kelib chiqqan holda, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga nisbatan:
 - stavka miqdorida – 30-50 foiz ish o'rne;
 - 50 foizi miqdorida – 51-70 foiz ish o'rne;
 - 70 foizi miqdorida – 71 foizdan yuqori ish o'rne nogironlar uchun yaratilishi ko'zda tutilganda.

Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar tomonidan loyihalarni amalga oshirish uchun kredit mablag'larini ajratishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash Davlat jamg'armasiga kafillik berib boradi.

Bundan tashqari, mamlakatimizdagi qonunchilikka binoan "Ijtimoiy tadbirkor" maqomini olgan tadbirkorlik subyekti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.06.2018-y. PQ-3782-son "Aholining ijtimoiy zaif qatlami bandligini ta'minlashni rag'batlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida nazarda tutilgan imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish imkonini qo'lga kiritadi. Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirkorlik subyekti ijtimoiy korxonalar reyestriga kiritilgan kundan boshlab tatbiq etiladi va ijtimoiy korxonalar reyestridan chiqarilgan kundan bekor qilinadi.

Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash asosiy faoliyatini favqulodda holatlarni bartaraf etish maqsadida o'zgartirgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan faqat favqulodda holatlar davrida qo'llaniladi hamda favqulodda holatlar bartaraf etilgan (bekor qilingan) oydan keyingi oyning birinchi sanasidan bekor qilinadi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun hukumat tomonida qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari tizimli ravishda ishlab chiqilishi va bunda ijtimoiy korxonalar moddiy, ma'naviy hamda boshqaruv maslali bo'yicha qo'llab-quvvatlanilishi lozim (1-rasm).



1-rasm: Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari

Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab quvvatlanish hamda rag'batlantirishning eng ommalashgan turi bu korxonalarga imtiyoz va preferensiyalar berishdir ^[3].

Tadqiqotlarimiz natijasida shuni guvohi bo'ldikki, ilg'or xorijiy tajribalarga ko'ra ijtimoiy korxonalarga quyidagi imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilishi yuqori samara beradi ^[5]:

- soliqlar va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berish;
- davlat mulki obyektlarini yoki ularga bo'lgan mulkiy huquqlarni imtiyozli yoki "nol" qiymat bo'yicha berish;
- davlat buyurtmachilariga to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali ijtimoiy tovarlarni realizatsiya qilish va ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish;
- moliyaviy va soliq hisobotlarini soddalashtirilgan tartibda yuritish;
- faoliyati byudjet hisobidan to'liq yoki qisman moliyalashtiriladigan reklama tarqatuvchilar tomonidan reklama uchun ajratilgan efir vaqti, nashr yoki reklama maydoni umumiy yillik hajmining 5 foizidan kam bo'lmagan hajmda ijtimoiy korxonalarining ijtimoiy tovarlari va ijtimoiy xizmatlari reklamasini bepul joylashtirish.

Ijtimoiy korxonalar reestriga kiritilgan tadbirkorlik subyektlari o'tgan moliya yilida olingan foydaning kamida uchdan ikki qismini keyingi moliya yili davomida ijtimoiy korxonaning faoliyatiga yoki ijtimoiy loyihalarga reinvestitsiyaga yo'naltirmagan taqdirda, undan soliq va bojxona to'lovlari bo'yicha taqdim etilgan imtiyoz summolari qaytarib olinadi, asosiy faoliyatini favqulodda holatlarga qarshi kurashish va uning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarishga o'zgartirgan tadbirkorlik subyektlari bundan mustasno. Olingan foydaning kamida uchdan ikki qismini mazkur qismda belgilangan maqsadlar uchun yo'naltirganligi ijtimoiy korxonaning soliq hisobotlari orqali aniqlanadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari hisobidan keyinchalik ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga kreditlar ajratish uchun tijorat banklarida resurslar joylashtiriladi hamda ijtimoiy loyihani amalga oshirish uchun ijtimoiy korxona tomonidan olinadigan kreditlar bo'yicha kafillik beriladi va foiz xarajatlarni qoplash uchun kompensatsiyalar ham to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun budjet subsidiyalari ham belgilanishi mumkin. Subsidiyalash O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga qaytarilmaydigan asosda amalga oshiriladi va

- ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati va ijtimoiy loyihaning hajmi;
- ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati va ijtimoiy loyiha amalga oshiriladigan hududning shart-sharoitlari;
- kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy samaraga va yangi ish o'rinlarini yaratish kabi mezonlarga qarab amalga oshiriladi.

Budjet subsidiyalarining hajmi O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlanadigan dasturlar doirasida belgilanadi. Budjet subsidiyalari ajratiladigan ijtimoiy korxonalar vakolatli organ tomonidan ijtimoiy



loyihalarni moliyalashtirish uchun o'tkaziladigan tanlovlar orqali aniqlanadi va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun tanlov o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Dunyoning ijtimoiy tadbirkorlik rivojlangan mamlakatlarida atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlikning keng tarqalgan turlaridan biri bu qayta tiklanuvchi energiyadan foydalangan holda harakatlanuvchi elektroskuterlar, elektromobillar, elektobuslar kabi vositalarini ishlab chiqishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 19-dekabr kuni elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qarorni imzoladi. Bundan asosiy maqsadlardan biri yashil texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, elektromobillar va ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash orqali havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini qisqartirishdan iborat. Qarorga muvofiq, elektromobillar ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etish hamda bu tizim ishlab chiqarishni quyidagi tartibda yo'lga qo'yadigan barcha investorlarga nisbatan teng tatbiq etish belgilandi ^[2]:

- a) birinchi bosqichda, 24 oy davomida ishlab chiqarish ishlab chiqarishning to'liq sikli, jumladan kuzovning kamida 50 foizini payvandlash, bo'yash, yig'ish va avtomobillarni sinashni yo'lga qo'yish;
- b) ikkinchi bosqichda, 36 oy davomida oyna, o'rindiq, plastik qismlar, eshik qoplamalari, instrumentlar paneli, bampor kabi butlovchi qismlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish yoki kooperatsiya asosida mahalliyashtirish.

Elektromobillarni sanoat usulida ishlab chiqarish davlat tomonidan quyidagilar orqali qo'llab-quvvatlanadi:


- 2030-yil 1-yanvarga qadar respublikada ishlab chiqarilgan elektromobillar utilizatsiya yig'imidan, shuningdek, ularning butlovchi qismlari, jihozlar, xomashyo materiallari va servis xizmat ko'rsatish uchun ehtiyot qismlari bo'xona bo'jidan ozod etiladi. Utilizatsiya yig'imi miqdori elektromobillar uchun 9 mln so'm va gibril avtomobillar uchun 36 mln so'm, 2024-yilda ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan 15 mingta avtomobil uchun imtiyoz utilizatsiya yig'imidan 337,5 mlrd so'mni, bo'xona bo'jidan 48,4 mlrd so'mni tashkil etishi kutilmoqda;
- investorlarga ishlab chiqarish jarayoni o'zlashtirilgunga qadar (24 oydan oshmagan) yiliga 10 ming donadan (ishlab chiqarish quvvatlarining 50 foizidan) ko'p bo'lmagan elektromobillarni mashinokomplekt (SKD) yoki tayyor avtomobil (CBU) holatida bo'xona boji va utilizatsiya yig'imi to'lamasdan olib kirishga ruxsat beriladi. Bo'xona to'lovlari 1 dona elektromobil uchun 800 dollarga (utilizatsiya yig'imi), 1 dona gibril avtomobil uchun 6,9 ming (utilizatsiya yig'imi – 3,2 ming, bo'xona boji – 3,3 ming) dollarga kamayadi. 10 mingta avtomobil uchun imtiyoz 450–550 mlrd so'mni tashkil etadi.
- respublikada ishlab chiqarilgan elektromobillarni sotib olishga olingan 360 mln so'mdan ko'p bo'lmagan kredit foizlarining 15 foizdan oshgan, biroq 10 foiz punktidan oshmagan qismini qoplash uchun kreditning dastlabki 36 oyida davlat budjetidan kompensatsiya to'lanadi.

Bundan tashqari, atrof muhitni himoyalashga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab quvvatlanish hamda rag'batlantirishni yanada oshirish uchun kompensatsiya to'lovi 1 dona avtomobil uchun 3 yilga 59,1 mln so'mni, 10 mingta avtomobil uchun 591,2 mlrd so'm bo'ladi. Kreditning oylik to'lovi 1,642 mln so'mga (8,7 mln so'mdan 7 mln so'mgacha) kamayadi. Kredit foizlarining bir qismini qoplash uchun Davlat budjetidan yillik o'rtacha 100 mlrd so'm mablag' sarflanishi (1 ta elektromobil uchun 59,1 mln so'm) kutilmoqda. Koreya (1–6 ming dollar), Yaponiya (3,2–6,5 ming dollar), AQSh (4,5–7,5 ming dollar) va Xitoy (0,8–2 ming dollar) kabi davlatlarda aholiga elektromobil sotib olish uchun kompensatsiya to'lanadi. 2030-yil 1-yanvarga qadar elektromobillarda yo'lovchilarni tashish xizmatlarini ko'rsatuvchi shaxslar litsenziya uchun litsenziya uchun davlat boji to'lashdan ozod etiladi ^[14].

2023–2025-yillarda davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimliklar va davlat ulushi 50 foizdan ko'p bo'lgan korxonalar tomonidan elektromobillar xarid qilinishi bo'yicha maqsadli parametrlar tasdiqlandi. Elektromobillardan foydalanishni qulaylashtirish uchun, 2024-yildan boshlab barcha yangi savdo, ko'ngilochar va biznes markazlari, yoqilg'i quyish shoxobchalari, mehmonxonalar va avtomobil yo'llar bo'yidagi infratuzilmalarda majburiy tartibda elektromobillarni quvvatlantirish stansiyalari joylashtiriladi.

Bugungi kunda malakatimizda elektromobillar faqat import qilinmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistonga 10 dan ortiq mamlakatlardan elektromobillar import qilingan. Eng ko'p import qilingan mamlakatlar bular Xitoy 1941 ta, BAA 111ta, Germaniya 58ta, Janubiy Koreya 7 ta va boshqa davlatlar 11tani tashkil qilmoqda ^[14].

Elektromobillar importi faoliyatini moliyaviy qo'llab quvvatlanish hamda rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar natijasida 2022-yil davomida xorijdan 2180 dona qiymati 69,8 million AQSh dollari bo'lgan elektromobillar import qilingan. Elektromobillar importi o'tkan yilning mos davriga nisbatan 1371 donaga yoki deyarli 53 million AQSh dollariga oshgan (2-rasm).



2-rasm: Mamlakatimizga import qilingan elektromobillar dinamikasi

Mamlakatimizda ekologik tadbirkorlikni yanada rivojlantirish hamda atrof-muhit muhofazasi va chiqindilar bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentyabrdagi PQ-4845-son "Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarga davlat-xususiy sheriklikni joriy etildi va bu borada Buxoro, Navoiy, Namangan, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida joriy yilda qiymati 32,0 million AQSh dollariga teng bo'lgan bo'lgan 16 ta hamda o'tkan yili 46 ta jami 62ta loyiha amalga oshiriladi, buning natijasida 725 ta maxsus texnika, 64 ta chiqindilarni qayta ishlash, 43 ta chiqindilarni saralash uskunalarini xarid qilinadi ^[15]. Maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlarini ko'rsatish sohasida tadbirkorlik subyektlariga doimiy foydalanish uchun so'nggi yillarda 1300dan ortiq texnikalar berildi (1-jadval). Bu esa o'z navbatida, davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilayotgan hududlarda sanitar xizmat ko'rsatish qamrov darajasining 100 foizga yetkazilishiga hamda 2 650 ta yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi ^[15].

1-jadval: Maishiy chiqindilarni qayta ishlash korxonalariga berilgan texnikalar tarkibi

№	Hududlar nomi	Ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari soni, (ta)		Basiz yildan farqi, (ta)	Berilgan texnikalar soni (ta)		Basiz yildan farqi, (ta)
		2021	2022		2021	2022	
1	Buxoro viloyati	1	5	4	26	95	69
2	Namangan viloyati	4	4	0	106	125	19
3	Farg'ona viloyati	9	10	1	243	270	27
4	Navoiy viloyati	2	2	0	110	110	0
5	Xorazm viloyati	3	3	0	58	58	0
6	Samarqand viloyati	4	4	0	36	89	53
7	Toshkent viloyati	2	2	0	66	71	5
8	Andijon viloyati	7	7	0	279	279	0
9	Qashqadaryo viloyati	6	13	7	98	212	114
10	Surxondaryo viloyati	0	1	1	0	35	35
Jami		38	51	13	1022	1344	322

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdagi, maishiy chiqindilarni to'plash, olib chiqib ketish va saralash xizmatlarini ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalari dorasida ekologik ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi Qashqadaryo (13ta) va Farg'ona (10) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. 2022-yilda o'tkan yildagi mavjud 38ta ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining 2tasining faoliyati turli sabablarga ko'ra tugatildi, 15ta yangi korxona o'z faoliyatini boshladi va tadbirkorlar soni 51taga yetgan. Korxonalarga doimiy foydalanish uchun 2021-yili 1022ta, 2022-yilda 1344 ta, jami 2366 ta texnikalar berilgan. Bunday maxsus texnika vositalari berilishi bo'yicha Andijon viloyati (279ta) eng yuqori, Surxondaryo viloyati (35) eng past korsatkichga ega.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish nogiron shaxslar uchun ish o'rni, ishsizlar sonining kamayishi, tadbirkor uchun esa ish faoliyatining doimiy yurib turishi, atrof-muhit muhofazasi va shu kabi ijtimoiy, iqtisodiy hamda ekologik muammolarni bartaraf etishda ancha samaraliroq va qoniqarliroq aytish natijalar olib kelishi mumkin. Chunki ijtimoiy tadbirkorlik, nafaqat ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamni qo'llab quvvatlaydi, balki ijtimoiy sohada mavjud bo'lgan yoki yuzaga kelgan muammolarga yuqori darajada echim topishga ham o'z e'tiborini qaratadi. Masalan, pandemiya davrida, ayrim korxonalar tomonidan tibbiyot niqoblari, sanitar-gigienik vositalar arzon narxlarda yoki bepul tarzda aholiga etkazib berildi.

Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati huquqiy va me'yoriy asoslar, moliyaviy resurslar, biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish tuzilmalari, o'qitish va ishchi kuchini rivojlantirish bilan bog'liq bir qator muhim masalalarda to'siqlarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun, ijtimoiy tadbirkorlik subektlarining huquqiy asoslari va ularni rivojlantirishning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy korxonalar paydo bo'lishi, mustahkamlanishi va rivojlanishi uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ularga imtiyozlar ajratib berish zarur.

Respublika miqyosida ijtimoiy tadbirkorlikning elementlari uchrasada, ammo jamiyat uchun mazkur termin nisbatan yot kategoriya hisoblanadi, qolaversa, bizda hali ushbu munosabatning amaliyotga kiritilishi, tatbiq etilishi, xalqning mazkur tushunchaning mavjud bo'lishini qabul qila olishi uchun asosiy katalizator ham bo'lishi lozim. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari va ijtimoiy tadbirkorlar to'g'risida aholi o'rtasida tushuntirishlar olib borish hamda yo'riqnomalar va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ilg'or xorij tajribalaridan ijtimoiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishda davlat bosh islohotchi vazifasini o'tashini hamda sohani rivojlantirish va boshqarishda uchun alohida tashkilot tashkil etilganligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-4291-son 2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi 17.04.2019-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-dekabrda "Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-443-sonli qarori. e-qaror.gov.uz/ru/doc/1084202
3. Narzullayev E.Sh. Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlanishini baholash turlar. Yangi O'zbekiston: Innovatsiya, fan va ta'lim// Respublika 56-ilmiy konferensiyasi. 30-sentabr. Toshkent-2023 14-11 b.
4. Maxmudov N.M. Narzullayev E.Sh. Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasining paydo bo'lish tarixi, uning turlari va rivojlanish tarmoqlari. // Innovation in the modern education system: International scientific conference (25th April, 2021) – Washington, USA: Part 5, Issue 1. B- 403-412.
5. Maxmudov N.M. Narzullayev E.Sh. Atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlikning tarkibiy tuzilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari // Journal of Innovations in Social Sciences Volume 1 | Issue 4 (Oct 2021) B-58-65.
6. D. Bornstein. How to Change the World: Social Entrepreneurs and the Power of New Ideas – 2005. – B. 88-89.
7. S.Teasdale "Making Sense of Social Enterprise Discourses" – 2012. – B. 59.
8. J. Gregory Dees. The Meaning of Social Entrepreneurship. – 2016.
9. Александра Лапшина Подходы к оценке социальных результатов для социального предпринимательства 01.02.2017.
10. Арбузова Т.Н. Социальная инфраструктура: проблемы и перспективы. –М.: Знание, 2008. – 105 с.
11. Важенин С.Г. Региональные особенности развития социальной инфраструктуры. –М.: Мысль, 2002.– 220 с.
12. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Toshmatov Sh.A., Butaboyev M.T. – "Yashil iqtisodiyot" darslik. B-52.
13. A.Madaminov Ijtimoiy tadbirkorlik: Yangi qonun loyihasi haqida – 2020
14. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya hamda atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi ma'lumotlari.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.